



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

IMOM BUXORIY ASARLARINI BUGUNGI YOSHLARGA

O'RGATISHNING AHAMIYATI

Qosimov Ubaydulloh Avazbek o'g'li

Osiyo Xalqaro Universiteti magistri

ubaydulloandijon@gmail.com

+998911682202

Yoshlar tarbiyasida buyuk muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning sahih hadislari o'quvchilar tarbiyasida eng muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga kelajak avlodga ilm- ma'rifatli, bilimli, zakovatli, aqli va idrokli, baxtli va saodatli, odob- axloqli, pok hamda iffatli, sabr matonatli bo'lib ulg'ayish tuyg'ulari shakllanib boradi. Imom al-Buxoriy hadislarida axloq masalasiga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, hadisi Sharifda «Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» deydiladi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning hadislarida insonning ma'naviy kamolga yetish uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo'lib, bular mehr-oqibat ko'rsatishlik, sahiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-onha va kattalarga hamda qarindoshlarga g'amxo'rlik, hurmat; faqir-bechoralarga muruvvat; vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, o'zaro do'st, tinch-totuv bo'lib yashash, ilmning qadr qimmati ilm o'rganishga bo'lgan muhabbat va boshqalardan iboratdir. shuningdek, ma'naviy kamolga yetish uchun inson o'zini qanday bo'lmasin yomon illatlardan tiyish, har qanday yaxshilik sari intilish kerakliliği borasidagi pand-nasihatlar ham axloqiy-ma'naviy tarbiyani rivojlantirishda o'z ifodasini topgan bo'lib bularning barchasi Qur'oni Karim ko'rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezoni sifatida hozirgi kunda yoshlarimizda ma'naviy tarbiya uchun yetakchi omillardan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 14- 15-aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib,: “Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo'nim topgan ushbu maskanda o'ziga xos ma'naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o‘ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o‘rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug‘ ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodni mas’uliyatini his etadi”deya ta’kidlab o’tgan edi. Darhaqiqat, Imom Ismoil al-Buxoriyning asarlarida odob-ahloq masalalarini yorituvchi hadislar jamlangan bo’lib, ijtimoiy turmushda hamda insonlar o’rtasida o’zaro munosabatlarni tashkil etish chog’ida amal qilinishi lozim bo’lgan odob- ahloq qoidalari borasida ma’lumotlar berilgan. Islom ta’limoti g’oyalariga ko’ra har bir musulmon, eng avvalo, iymonli bo’lishi kerak. Qur’oni Karimda ta’kidlanganidek, Islom dini ta’limotining yaratilishidan muddao, murod kishilarda iymon, e’tiqodni shakllantirishdir.

Buyuk muhaddis Imom al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” (“Odob-axloq haqidagi yagona kitob”) asari hayotimizda juda zarur bo‘ladigan odob-axloqqa doir hadislar to‘plamidir. “Al-adab al-mufrad” kitobining nomidan bilinib turibdiki, bu kitobning o‘zi odob-axloq, ta’lim-tarbiya haqidadir. Asarda axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Asarda keltirilgan hadislarda insonning kamolga yetishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo’lib, bular mehr-oqibat ko‘rsatish, saxiylik, ochiq ko‘ngillilik, ota-onasi va kattalarga, qarindoshlarga g‘amxo‘rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug‘lash, halollik, poklik, o‘zaro do‘s, tinch-totuv bo‘lish kabi ijobjiy hislatlarni sanab o‘tilgan. Bundan tashqari, insonning o‘zini qanday bo‘lmasisin yomon illatlardan tiyish, har qanday yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o‘z ifodasini topganki, bularning barchasi Qur’oni Karim ko‘rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezoni sanaladi. Hadislarda insonning ma’naviy kamoloti mezoni, uning tafakkur doirasasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani, o‘z bilimi bilan atrofdagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo’lib yetishishida muhim omil chiroyli xulqli bo‘lish deb ko‘rsatiladi.

Mamlakatimizning bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy salohiyati, xalqimizning aql-zakovati va irodasi, el-yurtimizning ozod, farovon, baxtli kelajagini yaratuvchi sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalashdek vazifani bajarishda imkoniyatlari beqiyosdir. Shunday ekan, bugungi zamondakelajagi buyuk davlatga



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

munosib barkamol avlodni tarbiyalash, ularni ma’naviy yetuk, jismonan baquvvat, ma’rifatli, yuqori darajali mutaxassis kadr qilib yetishtirish ustida faol ish olib borish lozim. Bugungi kunda unib,o’sib kelayotgan yosh avlodni mehr-oqibatli, sahovatli, Vatanga muhabbat, hamda kelajakka ishonch bilan qarash ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ajdodlarimizdan avlodlarga qoldirilgan boy milliy-ma’naviy hamda madaniy meros hamda ulkan kashfiyotlar mamlakatimiz yoshlarida ajdodlar ruhiga hurmat, Vatanga muhabbat hamda barkamol avlod ruhida kamol topishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, hadislar mazmunan har bir mo‘minning ishonchini, e’tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma’naviy kamolotga da’vat etadi. Shu boisdan ham, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.SH.M.Mirziyoyev. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hajihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik // Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. T.: „O‘zbekiston”.
- 2.I.A.Karimov. Sog‘lom avlod tarbiyasi – barchamizning muqaddas insoniy burchimiz. // Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T. 8. T.: „O‘zbekiston”, 2000, 425-bet.
- 3.O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" T. : Davlat ilmiy nashiryoti, 2003.
- 4.Shovosil ZIYODOV, Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishning samarali modeli.
5. Алимов У. Қуръони Каримдан кейинги иккинчи муқаддас китоб. Йомом ал-Бухорий сабоқлари. Тошкент. 2009.